

### **Asosiy ko'rsatkichlari.**

2016 yilning 1 yanvar holatiga bankning jami aktivlari o'tgan yilga nisbatan 37,6% ga o'sgan. Daromad keltiruvchi aktivlar umumiy aktivlarni 76,3% tashkil qildi.

Bank kapitalining hajmi 2015 yil 1 yanvarga nisbatan 14,2% ga o'sgan.

Bank daromadlarining hajmi ko'payib bormoqda va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 119,5% oshgan holda, olingan sof foyda miqdori ham o'z navbatida 109,3% ga oshgan

### **2016 yil 1 yanvar xolatiga "Asaka" bank aktsiyadorlari ro'yxati**

<b>No</b>	<b>Aktsiyadorlar nomi</b>	<b>Aktsiyalar miqdori (dona)</b>	<b>Aktsiyalar paketining nominal qiymati</b>	<b>Ulushi (%)da</b>
1	O'z.R. Moliya vazirligi	251 221 140	279 378 005 371,20	54,14%
2	"Uzavtosanoat" AK	60 063 900	66 795 861 912,00	12,94%
3	O'z.R Tiklanish va taraqqiyot fondi	60 000 000	66 724 800 000,00	12,93%
4	"Olmaliq TMK" AJ	28 291 923	31 462 881 729,84	6,10%
5	Buxoro NQIZ UK	25 333 966	28 173 396 909,28	5,46%
6	Navoiy TMK AJ	10 876 953	12 096 041 892,24	2,34%
7	"O'zbekiston temir yo'llari" DATYK	10 626 953	11 817 134 452,40	2,29%
8	"O'zbektelekom" AK	5 605 006	6 233 215 072,48	1,21%

7	Farg'ona NQIZ USHK	4 464 286	4 964 643 174,88	0,96%
8	"Uzmetkombinat" AJ	4 464 286	4 964 643 174,88	0,96%
11	"Uzagrosugurta" DASK	2 064 000	2 295 333 120,00	0,44%
12	"Uzbekinvest" NKEIS	518 400	576 502 272,00	0,11%
13	"Xalq Sugurta" MCHJ SK	522 000	580 505 760,00	0,11%
JAMI:		464 052 015	516 062 964 841,20	100 %

### **Uzoq muddatli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha.**

2015 yilda «Asaka» bank tomonidan 1 150,0 mlrd.so'm miqdorida uzoq muddatli investitsion loyihalar moliyalashtirilgan, shu jumladan iqtisodiyot sektorlari:

Sanoat – 787,0 mlrd.so'm.

Qishloq ho'jaligi – 60,4 mlrd.so'm.

Qurilish – 167,9 mlrd.so'm.

Transport va aloqa – 5,2 mlrd.so'm.

Ijtimoiy soha – 8,4 mlrd.so'm.

Boshqa maqsadlar – 121,1 mlrd.so'm.

Ushbu loyihalarni moliyalashtirish natijasida 14 247 yangi ishchi o'rinlar barpo etilgan.

Shuningdek, «Asaka»bank tomonidan respublikaning barcha regionlarida aholini uy-joy qurilishi fondi bo'yicha podryad tashkilotlarga kredit ajratish yuzasidan faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 298,0 mlrd.so'm kredit mablag'lari ajratilgan, jumladan viloyatlar kesimida:

Andijon viloyati – 9,7 mlrd.so'm;  
Kashkadaryo viloyati – 33,9 mlrd.so'm;  
Ferg'ona viloyati – 34,9 mlrd.so'm;  
Xorazm viloyati – 29,6 mlrd.so'm.  
Qoraqalpog'iston Respublikasi- 116,4 mlrd.so'm.  
Surxondaryo viloyati – 21,5 mlrd. so'm  
Jizzax viloyati – 19,6 mlrd. so'm  
Namangan viloyati – 4,1 mlrd. so'm  
Sirdaryo viloyati – 1,5 mlrd. so'm  
Toshkent sh.- 26,8 mlrd. so'm

### **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha.**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlash uchun mablag'lar ajratildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,7 foizni tashkil qildi.

Shundan ajratilgan mikrokreditlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,6 foizni tashkil etdi.

Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga ajratilgan kredit mablag'lari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,5 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1047-sonli Qaroriga asosan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 131 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1050-sonli Qaroriga asosan nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga ajratilgan kreditlar o'tgan yilning shu davriga nisbatan 130.8 foizni tashkil etdi.

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun ajratilgan kreditlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 129.7 foizni tashkil etdi. SHuningdek, 2015 yil davomida ta'lim muassasalari bitiruvchilariga 11,5 mlrd. so`mdan ortiq kredit mablag`lari ajratildi.

Aholi bandligini ta'minlash maqsadida 2015 yil davomida "Asaka" bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ajratilgan kreditlar va moliyalashtirilgan loyihalar hisobiga 4 124 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

## **Bank depozitlari bo'yicha**

2016 yil 1 yanvar holatiga bankning jami aholi omonatlari qoldig'i (talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli va plastik kartalar) miqdori joriy yil boshiga nisbatan 122%ga oshgan, shundan muddatli omonatlar qoldig'i o'tgan yilga nisbatan 121%ga ortdi.

Bank bo'yicha jami 44 ta omonat turi mavjud bo'lib, shundan 27 tasi milliy valyutadagi va 17 tasi xorijiy valyutadagi omonatlar.

2015 yil yanvar-dekabr oylarida «Asaka» bank bo'yicha 4 421 mlrd.so`m pul mablag`lari kelib tushgan (naqd pulda 2 924 mlrd.so`m, plastik kartochnalar orqali – 1 497 mlrd.so`m).

Savdo va pullik xizmat orqali nakd puldagi tushum o'tgan yilga nisbatan 101% ga ortgan.

Plastik kartochnalar orqali amalga oshirilgan savdo va pullik xizmatlardan tushgan tushum 132% ga ortgan.

Boshqa tushumlardan (kommunal xizmatlar, soliqlar, omonat, o'qish pullari) 469 mlrd.so`mlik naqd pulda tushum bo'lgan.

## **Plastik kartochnalar biznesini rivojlantirish bo'yicha.**

Bank tomonidan 2016 yil 1 yanvar holatiga 1 mln. 504 ming dona plastik kartochnalar muomalaga chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 181 ming donaga ko'paygan.

2016 yilning 1 yanvar holatiga bank tomonidan 10 311 ta terminal o'rnatilgan, shundan savdo terminallari 9 300 donani tashkil qiladi.